

TIJORAT BANK KREDIT TIZIMINING TASHKILOTLARARO MUNOSABATLARIDAGI O'RNI VA IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI

Abdilxatov Ulug'bek Abdulquddus o'g'li
Talaba, Andijon davlat texnika instituti, Iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) 3-bosqich talabasi.
abdulhatovulugbek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank kredit tizimining tashkilotlar o'rtasida munosabatlarni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Kreditlarning iqtisodiyotdagi likvidlikni ta'minlash, ishlab chiqarishni kengaytirish, ta'minot zanjirlarini rivojlantirish hamda tashkilotlararo ishonchni mustahkamlashdagi ahamiyati ochib berilgan. O'zbekiston misolida bank kreditlari hajmining o'sishi, kredit YaIM ko'rsatkichi hamda muammoli kreditlarning (NPL) ulushi keltirilib, xalqaro moliya institutlarining tavsiyalari va islohotlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: bank kredit tizimi, tashkilotlararo munosabatlar, kredit risklari, likvidlik.

Аннотация: В данной статье проанализирована роль банковской кредитной системы в развитии взаимоотношений между организациями. Раскрыто значение кредитов в обеспечении ликвидности экономики, расширении производства, развитии цепочек поставок, а также в укреплении доверия между организациями. На примере Узбекистана приведены данные об увеличении объемов банковских кредитов, показателе кредит ВВП, а также доле проблемных кредитов (NPL).

Освещены рекомендации международных финансовых институтов и значение проводимых реформ.

Ключевые слова: банковская кредитная система, межорганизационные отношения, кредитные риски, ликвидность.

Abstract: This article analyzes the role of the banking credit system in the development of inter-organizational relations. The importance of loans in ensuring economic liquidity, expanding production, developing supply chains, and strengthening trust between organizations is highlighted. Using Uzbekistan as an example, the growth of bank credit volumes, the credit-to-GDP ratio, and the share of non-performing loans (NPLs) are presented. The recommendations of international financial institutions and the significance of ongoing reforms are also discussed.

Keywords: banking credit system, inter-organizational relations, credit risks, liquidity

Bank kredit tizimining tashkilotlar o'rtasida munosabatlarni rivojlantirishdagi o'rni- bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash va tarmoqlararo integratsiyani kuchaytirish nuqtai nazaridan muhim strategik omil hisoblanadi. Kreditlar nafaqat yakka tartibdagi korxonalarni moliyalashtirish vositasi, balki ular orqali tashkilotlar- yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, sotuvchi tarmoqlar o'rtasida uzluksiz iqtisodiy zanjirlar hosil bo'ladi. Banklar mablag'larni vaqtinchalik ortiqcha bo'lgan subyektlardan faoliyatini kengaytirish zarur bo'lgan korxonalarga yo'naltirish orqali tarmoqlar ichida samarali pul aylanmasini ta'minlaydi; natijada ishonch, kontraktlarga rioya qilish, va umumiy iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan siyosat va institutlar shakllanadi.

Kredit mexanizmi orqali tashkilotlar o'rtasida munosabatlar quyidagi yo'llar bilan rivojlanadi: likvidlik ta'minoti va ishlab chiqarish hajmini tez kengaytirish imkoniyati- korxona kredit olib xomashyo sotib oladi, ishlab chiqarishni oshiradi va bu orqali ta'minotchilari bilan shartnomaviy aloqalarni mustahkamlaydi; ta'minot zanjiri moliyalashtiruvi orqali ishonchli yetkazib berish va hisob-kitob mexanizmlari joriy etiladi; kredit shartlari va bank monitoringi tashkilotlarni moliyaviy shaffoflik va intizomga undaydi, bu esa hamkorlikda shaffof va barqaror munosabatlarni yaratadi; kredit orqali investitsiyalar va innovatsiyalar rag'batlantiriladi, bu esa yangi texnologiyalarni joriy etish va tarmoqlararo qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Shu tariqa kredit tizimi iqtisodiy aloqalarning katalizatori sifatida chiqadi: u tashkilotlarni bir-biriga bog'lovchi moliyaviy ko'priklar vazifasini bajaradi.

O'zbekistonda bank kredit tizimining yuqoridagi funksiyalari amaliy jihatdan ham sezilmoqda: so'nggi yillarda banklar tomonidan xususiy sektorga yo'naltirilgan kreditlar hajmi o'sib, kredit/YaIM nisbati oshgani qayd etilgan. Bu- bank xizmatlarining moliyaviy vositachilik darajasi ortayotganining dalilidir; lekin shu bilan birga bu jarayon kreditor-debitor munosabatlarini ham murakkablashtirishi mumkin, chunki o'sish bilan birga kredit risklari ham ko'rinadi.

Mamlakat bank sektorida qiyinchiliklarni kuzatmay qolish mumkin emas: muammoli kreditlar (NPL) masalasi ham dolzarb mavzulardan biridir. Markaziy bankning rasmiy statistikasiga ko'ra, tijorat banklari bo'yicha umumiy NPL ulushi 2025-yil boshidagi ma'lumotlarga ko'ra taxminan 4,0% ga tengligi qayd etilgan- bu sog'lom ko'rsatkich bo'lishi mumkin, ammo qayta tuzish va strukturalar ostida yashirilgan risklar ham mavjudligi e'tirof etilmoqda. Banklararo va moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish zarurati shu joyda namoyon bo'ladi.

Xalqaro moliya institutlari O'zbekistonda bank sektorini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarni ham amalga oshirmoqda; jumladan, Jahon banki tomonidan moliyaviy sektorni isloh qilish loyihalari va texnik yordam ko'rsatilmoqda, bunda kredit unumdorligini oshirish, kredit risklarini boshqarish qobiliyatini kuchaytirish va davlat banklarining xususiy sektorga bo'lgan yo'naltirilgan kreditlar tizimini

bosqichma-bosqich kamaytirish choralari muhokama qilinadi. Bu yo'nalishlar tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish va bozor mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tashkilotlar ham O'zbekiston uchun tavsiyalarni ilgari surmoqda: bular orasida banklararo raqobatni oshirish, davlat banklarining korporativ boshqaruvini yaxshilash, kredit risklarini aniqlik bilan baholash va uzun muddatli moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish aytiladi. Shuningdek, yo'naltirilgan kredit dasturlarini bosqichma-bosqich olib tashlash va bozorni kredit resurslarini effektiv taqsimlashga rag'batlantirish muhimligi qayd etilgan. Bunday chora-tadbirlar tashkilotlar orasidagi munosabatlarni sog'lom iqtisodiy raqobat va shaffof hamkorlik asosida shakllantirishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni hulosa qilish mumkin: banklar kredit siyosatini tarmoq yondashuv bilan emas, balki loyiha asosida, kredit rentabelligi va to'lov qobiliyatiga qarab o'rnatishi lozim; ta'minot zanjiri moliyalashtiruvchi, factoring va akreditiv kabi vositalarni keng joriy etish orqali yetkazib beruvchi va sotuvchi tashkilotlar o'rtasidagi ishonchni oshirish mumkin; kredit byulletenlari va kredit reyting tizimlarini rivojlantirish orqali qarzdorlik tarixi va kredit risklarini aniqlash osonlashadi; mikro, kichik va o'rta biznesga mo'ljallangan kafolat va qo'shimcha instrumentlar joriy etilishi ularning banklar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishiga yordam beradi; banklarning raqamli xizmatlarini va to'lov infrastrukturasi rivojlantirish orqali tashkilotlar o'rtasidagi operatsion integratsiyani tezlashtirish mumkin. Markaziy bank va xalqaro hamkorlar bu yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlab kelayotganlari va amaliy loyihalar orqali tajriba almashinuvi davom etmoqda.

Dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank kredit tizimi nafaqat moliyaviy resurslarni taqsimlash vositasi, balki xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, yangi investitsion loyihalarni moliyalashtirish va innovatsiyalarni rag'batlantirishda ham muhim mexanizm hisoblanadi. Masalan, rivojlangan davlatlarda banklar korporativ mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yib, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda strategik hamkor sifatida faoliyat yuritadi.

Germaniya tajribasida kredit tizimi universal bank modeli asosida shakllangan. Bu mamlakatda banklar nafaqat kredit beruvchi, balki mijozlarning biznes sherigi sifatida ham ishtirok etadi. Xususan, Germaniya iqtisodiyotida "Hausbank" tizimi keng tarqalgan bo'lib, u korxonalar uchun asosiy moliyaviy hamkor sifatida xizmat qiladi. Hausbank nafaqat kredit ajratadi, balki kompaniya faoliyatini kuzatib boradi, moliyaviy hisobotlarini tahlil qiladi va zarurat tug'ilganda maslahat xizmatlarini ham ko'rsatadi. Bunday model korxona bilan bank o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash va uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada Germaniyada

kichik va o'rta biznes kredit resurslariga keng kirish imkoniga ega bo'ladi, bu esa iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi.

AQSh tajribasida esa bank kredit tizimi yuqori darajada diversifikatsiyalashgan. Bu mamlakatda kreditlashning turli shakllari – iste'mol krediti, ipoteka krediti, sindikatlashtirilgan kreditlar, shuningdek, innovatsion startaplarni moliyalashtirish mexanizmlari keng qo'llaniladi. AQSh banklari tashkilotlar bilan kredit munosabatlarini rivojlantirishda risklarni boshqarish va sug'urta mexanizmlaridan faol foydalanadi. Masalan, bank kreditining qaytarilmasligi ehtimolini kamaytirish uchun "Credit scoring" tizimidan keng foydalaniladi. Bundan tashqari, AQShda tijorat banklari va investitsiya banklari o'rtasidagi hamkorlik moliyaviy bozorlarning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bu tajriba tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni faqat kredit bilan cheklab qo'ymasdan, balki kapital bozorida shiriklikka ham asos yaratadi.

Yaponiyada bank kredit tizimi "keiretsu" deb nomlangan korporativ guruhlar bilan chambarchas bog'liq. Keiretsu – bu yirik moliyaviy-industrial guruh bo'lib, ularning markazida odatda bank turadi. Bank ushbu guruhga kiruvchi korxonalarining asosiy moliyaviy homiysi hisoblanadi. Bu tizimda bank korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlab, ularning o'zaro hamkorlik munosabatlarini kuchaytiradi. Masalan, yirik sanoat kompaniyalari bir xil bankdan kredit olish orqali bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lib, umumiy iqtisodiy manfaatlarni ilgari suradi. Bunday tajriba Yaponiyada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va moliyaviy inqirozlarning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Janubiy Koreya tajribasi ham diqqatga sazovordir. Bu mamlakatda davlatning kreditlash jarayonlariga faol aralashuvi kuzatiladi. Hukumat banklar orqali muayyan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini yuritadi. Masalan, yuqori texnologiyalar sohasi, avtomobil sanoati va elektronika ishlab chiqarish yo'nalishlari davlat kafolatlari asosida kredit bilan ta'minlanadi. Shu orqali davlat bank tizimi va tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarga yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank kreditlari nafaqat korxonalarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, balki milliy iqtisodiyotning strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda ham hal qiluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xitoy tajribasida esa bank kredit tizimi iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Xitoyda davlat banklari iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini kreditlashda yetakchi o'rin tutadi. Masalan, infratuzilma loyihalari, energetika, transport va yuqori texnologiyalar sohalarini moliyalashtirishda davlat banklari faol qatnashadi. Shu bilan birga, xususiy banklarning ham roli tobora ortib bormoqda. Xitoyda kreditlashning o'ziga xos jihatlaridan biri – uzoq muddatli va past foizli kreditlarning keng qo'llanishidir. Bu esa tashkilotlar o'rtasida barqaror hamkorlikni shakllantirish va investitsion faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank kredit tizimining samaradorligi bir nechta omillarga bog'liq: bank va mijoz o'rtasidagi uzoq muddatli ishonchli munosabat, kreditlashda davlatning qo'llab-quvvatlash siyosati, moliyaviy texnologiyalarning keng qo'llanilishi hamda diversifikatsiyalashgan kredit mahsulotlari mavjudligi. Shu sababli, O'zbekiston bank tizimida xorijiy tajribani o'rganish va moslashtirish tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish, shuningdek, milliy iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, bank kredit tizimi tashkilotlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda markaziy rol o'ynaydi: u likvidlik ta'minotidan tortib, ta'minot zanjiri va investitsiyalashgacha bo'lgan jarayonlarni moliyalashtiradi va shu orqali tarmoqlararo ishonch va hamkorlikni shakllantiradi. Biroq ushbu mexanizmlarning samaradorligi siyosiy qarorlar (masalan, davlat banklarining roli va yo'naltirilgan kreditlar), banklarning risklarni boshqarish salohiyati va kredit infratuzilmasining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli, kredit tizimini tubdan mukammallashtirish yo'li etik, institutsional va texnologik islohotlarni birgalikda talab qiladi — va aynan shu yo'nalishlar tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkam va barqaror rivojlantirishning asosi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari faoliyati ko'rsatkichlari, 2025-yil yanvar holatiga. — Toshkent: Markaziy bank rasmiy sayti.
2. Jahon banki. Financial Sector Reform Project in Uzbekistan. — Washington, 2023.
3. International Monetary Fund (IMF). Uzbekistan: Staff Report for the 2023 Article IV Consultation. — Washington: IMF, 2023. <https://www.imf.org>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. Bank sektori islohotlari va kredit siyosati rivoji. — Toshkent, 2024.
5. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC). Uzbekistan Financial Sector Assessment and Recommendations. — Washington, 2022.